



XALQ DEPUTATLARI KO'KDALA TUMANI KENGASHI

181214, Ko'kdala tumani, Erkin Vohidov ko'chasi, 1-uy. Tel: (75) 230-14-59

2022 - yil 26 - sentabr

VI-5-30-4-224-K/22

Ko'kdala tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dagi mablag'larni mazkur tadbirlarga yo'naltirish to'g'risida

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dagi mablag'larni mazkur tadbirlarga yo'naltirish maqsadida Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi KQ-213-IV-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022 yil 30 iyundagi "Tuman (shahar) budjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi KQ-377-IV-sonli Qarori ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining "Ochiq budjet" axborot portali orqali "Tashabbusli budjet" jarayonida fuqarolar tomonidan o'z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya'ni "ovoz berish" jarayoni yakunida aniqlangan "g'olib" takliflar ro'yxati hamda undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha manzilli ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ko'kdala tuman hokimligining Matbuot xizmati (O.Xudoyberdiyev) va tuman hokimligi moliya bo'limi (F.Yuldoshev) bilan birgalikda 3-bosqich, ya'ni "ovoz berish" jarayoni yakunida aniqlangan "g'olib" takliflar, shuningdek undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar

bo'yicha ma'lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Ko'kdala tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (F.Bektemirov) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari (B.Do'stov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



Boqiyevich K. A.

PUDRAT SHARTNOMASI
(Xarduri MFY Xarduri qishlog'ini 2180 (Ikki ming bir yuz sakson metr) qismini joriy ta'mirlash) to'g'risida

444-4-223-OB/2022-son

11«11»2022 yil.

Ushbu shartnomaga asosan bir tomondan **Ko'kdala tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** nizomiga asosan faoliyat yurituvchi boshqarma boshlig'i **X.A.Bobokulov** (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) hamda ikkinchi tomondan "**Choshtepa chashmasi MCHJ**" nizomiga asosan faoliyat yurituvchi rahbari **N.Maxmatkulov** (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi)lar ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzib imzoladilar.

Ko'kdala tuman hokimligi Xalq deputatlari tuman kengashining 2022 - yil 26 - sentabr VI-5-30-4-224-K/22-sonli Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dagi mablag'larni mazkur tadbirlarga yo'naltirish to'g'risida

1. Shartnoma predmeti va tariflar

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi: ijro hujjatlari - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruktsiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar; qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi; vaqtinchalik inshootlar - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar; berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlar; shartnoma narxini bo'lib chiqish - ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

2.2 mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi o'z kuchi va vositalari bilan "Barkamol press" MCHJ tomonidan 12.10.2022 yilda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilangan muddatda quyidagi ob'ektni Ko'kdala tumani Xarduri MFY ichki ko'chasini 2.180 (Ikki ming bir yuz sakson metr) qismini joriy ta'mirlash, (yangisini qurish harakatdagi korxonalar, bino, inshootni qayta jihozlash yoki kengaytirish) qurish va Buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi.

2.3 Buyurtmachi Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish, tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlarini taqdim etish, qurilishning o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlash, qurilishi tugallangan ob'ektlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. Taraflarning huquq va majburiyatlari

2.1. Buyurtmachining huquq va majburiyatlari:

a) qurilishni texnologik, energetik, elektrotexnik va boshqa zaruriy asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

ishchi komissiyaning dalolatnomasiga muvofiq tugallangan Ko'kdala tumani Xarduri MFY ichki ko'chasini joriy ta'mirlashni (ob'ekt nomi) pudratchidan qabul qilib olish, uni belgilangan muddatlarda ishga tushirish va haqini to'lash;

b) Buyurtmachi Pudratchining operativ-xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas. Pudratchining aybi bilan yo'l qo'yilgan bajarilgan ishlardagi yoki ishlar uchun foydalanilgan materiallardagi kamchiliklar Pudratchi tomonidan o'z hisobdan bartaraf etiladi;

d) Buyurtmachi ishlarning hajmi, qiymati va sifatining loyihalar va smetalarga muvofiqligi ustidan texnik nazorat va tekshirishni amalga oshirish paytida istalgan vaqtda qurilish va montaj ishlarining borishini, shuningdek foydalanilayotgan materiallarning sifatini tekshirishga haqli.

2.2. Pudratchining huquq va majburiyatlari:

a) O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi "shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK tomonidan tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari, titul varag'iga va qurilishmontaj ishlarini bajarish jadvaliga muvofiq 35 kungacha Ko'kdala tumani Xarduri MFY ichki ko'chasini joriy ta'mirlashning qurilishini amalga oshirish;

b) qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishini ta'minlash, o'zi montaj qilgan uskunalarni sinash va ishlatib ko'rishda ishtirok etish, qurilishi tugallangan ob'ektni ishchi komissiyaga topshirish va Buyurtmachi bilan birgalikda shartnomaga ilova qilingan jadvalga muvofiq uni ishga tushirish.

3. Shartnomaning qiymati va hisob-kitob qilish tartibi

3.1 mazkur shartnomaning umumiy qiymati **1 135 600 000.0 (Bir milliard bir yuz uttiz besh million olti yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

3.2 "Buyurtmachi" mazkur shartnoma ikki tomonlama imzolanib, Moliya Vazirligining tegishli G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran 5 ish kuni ichida "pudratchi"ning hisob raqamiga shartnoma umumiy qiymatining 30 % ya'ni **340 680 000 (Uch yuz qirq million olti yuz sakson ming)** so'm miqdorida oldindan to'lov o'tkazib beradi, qolgan 70 (etmish) foiz ya'ni **794 920 000 (Yitti yuz tuqson turt tuqqiz yuz yigirma)** so'mni joriy ta'mirlash ishlari to'liq amalga oshirilib, buyurtmachi tomonidan qabul qilish dalolat nomasi orqali qabul qilinganidan keyin hisob fakturaga asosan pul ko'chirish yo'li bilan to'lab beriladi.

3.3. Hisob-kitoblar uchun asos bo'lib bajarilgan ishlar dalolatnomalari va F-3 shakldagi bajarilgan ishlar va xarajatlar qiymati ma'lumotnomasi hisoblanadi.

4. Taraflarning javobgarligi

4.1. Pudratchi tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarmagan, lozim darajada bajarmagan taqdirda beruvchi buyurtmachiga majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2 Pudratchi bajarilgan ishlar sifati bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi bajarilgan ishlarni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, pudratchidan sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar bajarilganligi uchun jarima pudratchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.3. «Buyurtmachi» bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Penya, jarima to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni shartnomani asosiy shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

4.5. Ushbu shartnoma bilan nazarda tutilmagan masalalarda taraflar amaldagi Qonun hujjatlari, kapital qurilish bo'yicha me'riy hujjatlarga muvofiq ish tutadilar.

5. Nizolarni hal qilish tartibi.

5.1 Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan yoki unga aloqador bo'lgan barcha kelishmovchiliklar, nizolar Tomonlarning kelishuviga asosan hal qilinadi.

5.2 Nizolarni tomonlarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli tumanlararo, viloyat Iqtisodiy sudi orqali sud tartibida hal qilinadi.

6. Ishlarni bajarish

6.1 Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

6.2 Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

6.3 Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

6.4 Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

6.5 Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

6.6 Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

6.7 Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

6.7 Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

6.8 Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi, agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

6.9 Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

6.10 Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

6.11 Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

6.12 Alohida mas'uliyatli konstruktsiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

6.13 Qabul qilinadigan konstruktsiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruktsiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

6.14 Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

6.15. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

6.16 Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 34-bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

6.17 Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

6.18. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7. Kafolatlar

7.1 Pudratchi: barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini; o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatliyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini; ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni; ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalarga muvofiqligini kafolatlaydi.

7.2 Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarining kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 3 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomoning kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

7.3 Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

7.4 Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davarxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

8. Ishlarni qo'riqlash

8.1 Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

8.2 Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

9. Qo'shimcha shartlar

9.1. Joriy ta'mirlashning zarur materiallari va ekspluatatsiya qiluvchi xodimlar bilan ta'minlash Buyurtmachiga yuklatiladi.

9.2. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar qiymati ob'ekt bo'yicha shartnomaviy narx hisob-kitobining qaydnomasiga asosan belgilanib, Buyurtmachiga Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofik tegishli tartibda G'aznachilik bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'lik bajarishi uchun asos xisoblanib 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

9.3. shartnomaga taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinadi.

9.4 Shartnoma shartlarini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki shartnoma shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, Taraflardan birining talabi bilan shartnoma iqtisodiy sudning qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

9.5. Moddalarni ko'rsatuvchi so'z boshi shartnoma matnini ishlatishda qulaylik yaratish uchun qo'yilgan va bular shartnomani boshqacha talqin qilishga asos bo'lmaydi.

9.6. Ushbu shartnoma taraflarning barcha shartlarini aks etilgan

10. Korrupsiyaga qarshi shartlashuv

10.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir birini ishontiradi va ularga amal qilishni kafolatlaydi.

10.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari, va boshqa vakillari) Ta'minotchi

korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

11. Fors-major holatlari

11.1. Taraflardan biri shartnomaning yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda muayyan sharoitda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoiti, hukumat tadbirlari, hokimiyat organlarining qarorlari, harbiy nizolari, ichki tartibbuzarliklar va boshqa tabiiy ofatlar) fors-major tufayli bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

11.2. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etishga imkoni bo'lmagan taraf majburiyatlarning ijro etilishiga to'sqinlik qiluvchi vaziyatlar sodir bo'lgani yoki tugaganligi haqida ikkinchi tarafga bildirishi kerak.

12. Tomonlarning bank rekvizitlariva yuridik manzillari:

Pudratchi:

Tashkilot nomi: "Choshtepa chashmasi"
masulyati cheklangan jamiyat

Manzili:Chiroqchi tumani, Oybek
kuchasi

Bank nomi: Toshkent sh, Qishloq-Qurilish

OATB bosh amaliyot

boshkarmasi

H/R:20208000704658883001

STIR:206131469

MFO 01037

Buyurtmachi:

Tashkilot nomi: Ko'kdala tuman hokimligi

Obodonlashtirish boshqarmasi

Bank nomi: Markaziy bank toshkent sh B B

X
K K M

H/R:401722860102407065200110003

STIR: 309577256 MFO: 00014

Telefon: +998888051269, +998904400008

Raxbar  N. Maxmatkulov



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	XASAN BOBAKULOV ABDULLAYEVICH
Imzolangan sana	11.11.2022 08:24
Hujjat kodi	HC4326460232
Hulosa kodi	LN8437207118

Юридик шахсни давлат руйхатидан ўтказиши тўғрисида

ГУВОХНОМА

Регистрация тартиби рақами №296 0000 296

2006 й 23 феврал

Миллий гувоҳнома юридик шахс
«Монгана чиммас» фирмаси

Юридик шахс бўлган шахсий ҳужжатлари, фермер ҳужжатлари ва бошқа ҳужжатлари (ер участкаси ва унинг маълуми кўрсатилган) берилган.

Таъиннинг ҳуқуқий тартиби	ТХН 1010
Муделининг тартиби	МН 114
Номи маълуми	МХОБТ 1710242
Юридик шахснинг маълуми	КНТ 20738707
Бармоқ кеси	XXIVT 61110
Сенсус гувоҳининг идентификация рақами	СТНР 206131469

Бундан маълум бўлади

М.У.

Ишончли раҳбар раҳбари  Миллий

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY**

XULOSA

LN8437207118

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Pudrat shartnomasi

Pudratchi tomonidan umumiy qiymati 1 135 600 000.00 (bir milliard bir yuz o‘ttiz beshmillion oltiyuzming so‘m)lik pudrat shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot: Kukdala tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 09.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Kukdala tuman
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



N.A.BEGMATOV

09.11.2022

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 175072 на приобретение Xarduri MFY Xarduri qishlog'ni ichku xujalik yulini 2180 metr qismini joriy tamirlash ishlari uchun

Способ проведения электронный

Дата 08.11.2022

Время рассмотрения 08.11.2022 18:58

Закупочная комиссия Кукдала тумани ободонлаштириш божармаси. (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии BOVAKILOV XASAN boshqarmasi Raxbar Obodonlashtrish boshqarmasi

Секретарь комиссии NURMUCHAMMEDOV BANODIR bosh xisobchi Bosh xisobchi Obodonlashtrish boshqarmasi

Член комиссии JURAYEV ESHDAVLAT XXX ombor mudiri ombor mudiri Obodonlashtrish boshqarmasi

Член комиссии MAMATOV MASHRAB Kadrlar birlimi Kadrlar birlimi Obodonlashtrish boshqarmasi

Член комиссии YUSUPOV KAZAK SHODIYEVICH Bafim boshlig'i Bafim boshlig'i Obodonlashtrish boshqarmasi

Член комиссии YAKSHINOROV OMB SAVILOVICH Bafim boshlig'i Bafim boshlig'i Obodonlashtrish boshqarmasi

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 08.11.2022 года № лота 175072.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог
Подробное описание	Xarduri MFY Xarduri qishlog'ni ichku xujalik yulini 2180 metr qismini joriy tamirlash ishlari uchun
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1175 999 957.00
Стартовая сумма	1175 999 957.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 чки йулларни таъмирлаш ишларини бажаришда зарур малакали мутахассислари мавжудлиги туғрисида маълумотнома (Йшчи ходимларни малакаси ёки мутахассислиги туғрисидаги хужжат илова қилинган ҳолда) (мутахассислар маълумотлари асосан қурилди ва таъмирлаш ишлари соҳасида бўлиши шарт)

Тип: Бинарное значение

Описание: Маълумотнома нухаси илова қилиниши шарт

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MONUMENT STROY MCHP	10	1	8	Экспертная		
ООО ОҚҚАМИШ JLLOSI	10	1	7	Экспертная		
Акидахон Божодир кизм ХК	10	1	6	Экспертная		
SHAROFAT MALHOVVA	10	1	8	Экспертная		
ЧОШТЕПА ЧАШМАСИ Ф	10	1	10	Экспертная		
XK YA N KO'P TARNIYOQLI ISHLAB CHIQARISH	10	1	8	Экспертная		
ROMTAN TRANS YO'L QURILISH MCHP	10	1	8	Экспертная		

Критерий №2 Охириги билдати қурилди ва таъмирлаш ишларини таъмирлаш туғрисида маълумот (шартнома ва ҳисоб варақ фактуралар нухаслари ҳам илова қилинади) Resping asosan pili алушди

Тип: Бинарное значение

Описание: Шартнома ва ҳисоб варақ фактуралар нухаслари ҳам илова қилиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MONUMENT STROY MCHP	10	1	8	Экспертная		
ООО ОҚҚАМИШ JLLOSI	10	1	7	Экспертная		
Акидахон Божодир кизм ХК	10	1	7	Экспертная		
SHAROFAT MALHOVVA	10	1	8	Экспертная		
ЧОШТЕПА ЧАШМАСИ Ф	10	1	9	Экспертная		
XK YA N KO'P TARNIYOQLI ISHLAB CHIQARISH	10	1	7	Экспертная		
ROMTAN TRANS YO'L QURILISH MCHP	10	1	8	Экспертная		

Критерий №3 Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича мuddati ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги туғрисида маълумотнома (танлаш Эълон қилинган кундан кейин олиндиши шарт)

Тип: Бинарное значение

Описание: Маълумотнома нухаси илова қилиниши шарт (Афзалроқ)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MONUMENT STROY	10	1	8	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
МСП						
ООО ОҚОҒАМИШ JL'OSI	10	1	8	Экспертная		
Акидхон Боходир кизи ХК	10	1	8	Экспертная		
SHAROFAT MAJBOVA	10	1	8	Экспертная		
ЧОШТЕПА ЧАШМАСИ Ф	10	1	8	Экспертная		
ХК УА N КОР ТАРМОҚЛИ ИШЛАВ ШИОАРИШИ	10	1	8	Экспертная		
КОМПАН TRANS YO'L QURILISH MCHJ	10	1	8	Экспертная		

Критерий №4 Йул таъмирлашда фойдаланиладиган машина ва механизмлар рўйхати

Тип: Бинарное значение

Описание: Йул куриш ва таъмирлашда ишлатилмаган махсус техникалар бўлиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
